

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАҲСУС

*ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ*

*ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ  
ВАЗИРЛИГИ*

*АНДИЖОН ҚИШЛҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ*

**ЁШЛАР ИЛМИЙ солоҳиятини  
ЮКСАЛТИРИШ - ДАВР ТАЛАБИ**

*(Ёши олимлар, катта илмий ходим-изланувчилар, магистрантлар еа  
иқтидорли талабаларнинг XXXX илмий-амалий анжумани мақолалар  
тўплами)*

## УЎК(УДК):6П5.3

### QISHLOQ XO`JAL1GI MASH1NALARIDA YURITMALARNING QUVVATINI OSHIRISH YO`LLARI VA ULARGA TA`SIR ETAYOTGAN OMILLARNI ANIQLASH

*Baynazarov H.R., Boboyev N.Q. - assistentlar, And MI*

Qishloq xojaiigi maxsulotiarining sifati va unumdorligini oshirish hamda uning tannarxini kamaytirish uchun ularga agrotexnik ishlov berish ishlarini yaxshilashni talab etadi.

Bu ishlami amalga oshirish uchun ish unumdorligi yuqori bolgan, kam energiya sarflovchi qishloq xo'jaligi mashinaiari kerak bo'ladi. Demak, samaradorligi yuqori, quvvatga nisbatan kam material sarfl boladigan tannarxi arzon, sifatli qishloq xo'jaligi mashinalarini loyihalash, tayyorlash va ishlab chiqarishga tatbiq qilish darkor.

Mashinaiarni yuqorida aytilgan ko'rsatkichlarni ta'minlashda uning yuritmalari muhum ro'l o'yndaydi.

Qishloq xo'jaligi mashinalarida asosan mexanik hamda gidravlik yuritmaiar ishlataladi. Gidravlik yuritma va gidravlik avtomat elementlarini qo'llash xozirgi zamon mashinasozligi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ishchi mexanizmlarning ish unumdorligi va sifat ko'rsatkichlarini oshirishning va texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirishning muhum yoli hisoblanadi.

Yuritmalarni tanlashda mashinaning ishslash sharoiti-ffi xisobga olish zarur bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mashinaiari asosan ochiq havo, yuqori chang, havo harorati temperaturaning o'zgarish amplitudasi katta, qisqa muddatli yuqori yuklanishlar tez-tez bo'lib turadigan ish sharoitida xizmat qiladi. O'ta yuklanishlar tez-tez bo'iishini xisobga olganda qishloq xo'jaligi mashinalariga gidravlik yuritmaiar ko'proq mos keladi.

#### Gidravlik yuritmaiar boshqa yuritmalarga (mexanik, elektrik) nisbatan quvidaqi afzalliklarqa eqa:

1. Konstruksiyasi ixchamligi va massa hamda gabarit o'lchamlari boshqa yuritmalarga nisbatan kichikligi (bunda vallar, reduktorlar, muftalar, tormozlar, arqonlar, tayanchlar va boshqalar bo'lmaydi);
- 2 Uzatishlar sonining kattaligi;
3. Inersiyal parametrlarining qiymati kichikligi. Bu juda qisqa muddat ichida xarakatni ularsh, uzish, yo'nalishni o'zgartirish, ishchi sikl davomiyligini qisqartirish, mashina unumdorligi va ish resursini oshirish imkonini beradi;
4. Ishchi organ xarakat tezligini pog'onasiz va zarbasiz boshqarish mumkiniigi. Bu yuritmaning foydali ish koeffisiyentini oshiradi, avtomatlashtirishni osonlashtiradi, operatorning ishini engillashtiradi;

5. Boshqarish qulayligi va oddiyligi. Bu operatordan yuritmaning uvvatidan qay'iy nazar katta kuch talab qilmaydi va faqat ayrim

**i<sub>r</sub>ayonlarni** emas balki mashinaning butun texnologik jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi;

6. Uzellarning ketma-ket bog'lanmaganligi. Bu uzellarni mashinada j<sub><orn</sub>pakt joylashtirish imkonini beradi;

7. O ta yukanishdan ishonchli saqlanganligi. Bu mashinani favqulodda buzilishlardan saqlaydi;

8. Aylanma va ilgarilama-qaytma xarakatlarni bir-biriga oson almashishligi. (nasos - gidromotor yoki gidromotor - nasos);

9. Standartlashtirilgan va unifikatsiya ashtirigan uzellarning keng qo'llanishligi (nasos, gidromotor, gidrosilindr, gidrotaqsimlagich, gidrokapan, gidroqulf, filltr va xokazolar). Ular mashina yuritmasining loyihalash jarayonini tezlashtiradi, tannarxini kamaytiradi, ekspluatatsiya va ta'mirlash jarayonlarini engillashtiradi.

### **Shu bilan birga gidravlik yuritmaiar bir gator kamchiliklarqa eqa:**

1. Ish qobiliyati va ishonchliligi tashqi xaroratga va buning tasirida o'zgaradigan ishchi suyuqlikning qovushqoqligini o'zgarishiga bog'liqligi;

2. Ishchi suyuqlikni ichki va tashqi tomondan tizimning germetikligi buziiishi hisobiga oqishi (quvvatning xajmiy kamayishi). Bu yoqotilgan suyuqlik miqdorini a'oimiy ravishda to'ldirib (kompensatsiya) turishlikni taqozo qiladi;

3. Ish qobiliyati va ishonchliligi ishchi suyuqlikni tozaligiga o'ta sezgirligi. Bu suyuqlikni doimiy ravishda yuqori darajada tozalab tirishlikni taqozo etadi;

4. Gidravlik tizim detallarining materiali, tayyorlash aniqligi va yig'ish joyining tozaligiga talabning yuqoriligi;

5. Foydali ish koyeffisiyentining boshqa yuritmalarqa nisbatan ozliqi (0,7 -0,8 %);

6. Tizim tannarxining balandligi;

7. Yuqori malakali operatorning talab etilishi.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramasdan gidravlik yuritmalaridan foydalanishlik tobora kengayib bormoqda. Ularning konstruksiyasini takomillashtirish xozirgi kun texnika taraqqiyotining dolzarb muammolaridan <sup>bo</sup>Jib qolmoqda. Gidravlik yuritmalarini keng qo'llagan holda qishloq xo'jaligi mashinaiarining quvvatini, ish unumdoorligini oshirish bilan uning <sup>en</sup>ergiya sarfini, tannarxini kamaytirish va buning natijasida qishloq xo'jalik niaxsulotlarining sifatini yaxshilash, baxosini arzonlashtirish xozirgi zamon ІІI xojaligi taraqqiyotining eng muhim masalalaridan biridir.

Gidravlik yuritmaning foydali quvvatini, massaga nisbatan nisbiy sosiy ko'rsatkichlarini yaxshilash bu masala yechimining yagona yo'lidir.

Gidravlik yuritmaning quvvati va massasi uning quyidagi asosiy parameterlariga bog'liq bo'ladi:

1. Ishchi suyuqlikning nominal bosimiga;
2. Ishchi suyuqlikning nominal sarfiga

### **Gidravlik yuritma quvvatini ikki xil usul bilan oshirish mumkin.**

1. Yuritmaning bosimini oshirish orqali bo`lganda unina massasi gabarit o'lchamlari ishchi suyuqlikning xajmi kamayadi biroq yuritma detallarini tayyorlashning aniqlik va tozalik sinflari xamda tizim detallari matenallarning mustahkamiik chegaralarini yuqori bo`ladi Bunda ishchi suyuqlikni yaxshilab filtrlash va sovutish, shunhgdek kinematik oraliqiarni ishonchli va mustaxkam germitiklash zarur.

Sarfni oshirish ya`ni gidrosilindr porsheni diametrini kattalashtihsh yo`li. bilan bo`lganda, yuritmaning massasi, gabarit o'lchamlari va ishchi suyuqlikning **xajmi** ko'payadi. Ammo bunda **Tizim** detallarini **tayvorlashnj aniqlik** va tozalik sinflarini, matenallarning **mustaxkamlik chegaralarini** nisbatan kamaytirish, sovutish tizimini qo`ymaslik va ishchi suyuqlikni o`rtacha qovushqoqlikda olish mumkin.

Bu xolatlar (usullar)ni ularga ta'sir etadigan omillar bilan birga quyidagi jadval bo'yicha yaqqolroq tasavvur qilish mumkin.

### **Gidravlik yuritmalar tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tizimdagи bosim va sarfini o'zgarishiga bog`liqligi**

| Omillar |                      | Bosimni<br>oshirishda | Sarfni<br>oshirishda |
|---------|----------------------|-----------------------|----------------------|
| 1.      | Massa                | Kamayadi              | Oshadi               |
| 2.      | Gabarit o'lchamlar   | Kamayadi              | Oshadi               |
| 3.      | Ishchi suyuqlikning: |                       |                      |
| 3.1.    | Xajmi                | Kamayadi              | Oshadi               |
| 3.2.    | Qovushqoqligi        | Yuqori                | Me'yorda             |
| 3.3.    | Tezligi              | Oshadi                | Kamayadi             |
| 3.4.    | Temperaturasi        | Oshadi                | Kamayadi             |
| 4.      | Bak xajmi            | Kamayadi              | Oshadi               |
| 5.      | Sovutish tizimi      | Bo`lishi zarur        | Bo`lmasligi          |

|     |   |        |          |
|-----|---|--------|----------|
|     |   |        | mumkin   |
| 6.  | Ishchi suyuqlikni filrlash darajasi                     | Yuqori | Me'yorda |
| 7.  | Tizim detallari materiallarining mustaxkamlik chegarasi | Yuqori | Me'yorda |
| 8.  | Tizim detallarining aniqlik darajasi                    | Yuqori | Me'yorda |
| 9.  | Tizim detallari yuzalarining tozalik darajasi           | Yuqori | Me'yorda |
| 10. | Tizimning germetikligi (oraliqlarning zichlik darajasi) | Yuqori | Me'yorda |
| 11. | Gidravlik yo`qotish                                     | Yuqori | Me'yorda |

**Ushbu taxlildan xulosa shuki** gidravlik yuritmalaming quvvatini hosil qiluvchi nominal bosim va sarfning qiymatini, utarga ta'sir etayotgan jadvaldagi omillarni saibiy yoki ijobiy ta'sirini etiborga olgan holda birgalikda hisoblash ishning aniqlik darajasini oshiradi.